

TURIZM – O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING DRAYVERI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

1-kurs magistranti

Beg‘amova Sadoqat Nurbek qizi

Anotatsiya: Bugungi globallashuv davrida turizm sohasi dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston ham bu jarayondan chetda qolmayapti. So‘nggi yillarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Turizm nafaqat mamlakat imidjini oshiradi, balki iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida milliy daromadni ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududlarni kompleks rivojlantirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Kalit so‘zlar: drayveri, turizm, multiplikativ, pandemiya, infrastruktura, investitsiya.

Turizmning iqtisodiyotdagi ahamiyati. O‘zbekiston o‘zining boy tarixiy merosi, madaniyati, qadimiy shaharlar va tabiat manzaralari bilan dunyo sayyohlarini o‘ziga jalb etmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz kabi shaharlar nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun insoniyat sivilizatsiyasining muhim markazlari sifatida tanilgan. Shu bois turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyat kasb etib, yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning muhim qismini tashkil etmoqda. Ish o‘rinlari va tadbirkorlikni rivojlantirish. Turizm sohasining rivoji bilan mehmonxonalar, transport, restoran, hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida minglab yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, yoshlar bandligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun ham keng imkoniyatlar ochilmoqda. Turizmning rivojlanishi hududlarning iqtisodiy faolligini oshiradi. Viloyatlarda yangi yo‘llar, aeroportlar, mehmonxonalar, dam olish maskanlari va muzeylar qurilmoqda. Bu nafaqat sayyohlar uchun qulaylik yaratadi, balki ichki infratuzilmaning yaxshilanishiga

ham olib keladi. Chet ellik sayyohlar oqimi ortishi natijasida mamlakatimizga xorijiy valyuta tushumlari ko'paymoqda. Bu O'zbekistonning to'lov balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, xalqaro turizm aloqalari mustahkamlanib, yangi sarmoyalar jalb qilinmoqda. So'nggi yillarda turizmni rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston – yangi turizm makoni" konsepsiyasi asosida viza tartib-taomillari soddalashtirildi, "Ipak yo'li" brendi ostida xalqaro tanlov va festival dasturlari yo'lga qo'yildi. 2025-yilgacha mo'ljallangan turizm strategiyasi mamlakatni Markaziy Osiyodagi eng jozibador sayyohlik markazlaridan biriga aylantirishni maqsad qilgan. Turizm mamlakatimiz iqtisodiyotining ertangi kuni. So'nggi yillarda turizm milliy iqtisodiyotning "o'sish nuqtalaridan" biriga aylandi. U turizmga aloqador boshqa tarmoqlarni rivojlantirish uchun drayver bo'lib, yuqori multiplikativ ta'siri bilan daromadlarning ortishiga xizmat qiladi. Turizm O'zbekiston sharoitida yangi ish o'rinlarini tashkil etishda ham muhim omil hisoblanadi. Turizmni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar tufayli uch yil ichida sayyohlar soni 2,5 baravar oshdi. Agar 2017 yilda ularning soni 2,7 million nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilda 6,7 million nafarga yetdi. 2020 yilda pandemiya tufayli 1,5 million, 2021 yilda esa qariyb 1,9 million xorijiy sayyoh yuritimizga keldi. Turizm xizmatlari eksporti 2020 yilda 370 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda ushbu ko'rsatkich 15,1% oshib, 422,1 million AQSh dollariga yetdi. 2022 yilda jami 4,5 million sayyohning kelishi, buning hisobiga turizm xizmatlari eksporti sezilarli darajada ortishi kutilmoqda. O'zbekistonda turizm sohasining jadal tiklanishida ijobiy tendensiyalar kuzatilayapti. Ayni paytda mamlakat chet el sayohatlari uchun butunlay ochiq. O'zbekistonga sayohat qilish istagida bo'lganlar uchun barcha cheklovlar olib tashlandi. Pandemiyadan keyin ichki turizmni tiklash va aholining mamlakat bo'ylab sayohat qilishini tizimli ravishda tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sayyohlik (turizm) sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda. BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotida 2015 yilda dunyo

bo'yicha 1 milliard 184 million sayyoh qayd etilgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatkich 1 milliard 235 millionga ya'ni, 3.9 foizga oshgan. Sayohatchilarga ko'rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015 yilda qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. 2016–2017 yillarda ham bu raqamlarda katta tafovutni ko'rish mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko'plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Turizmning samaradorlik darajasi quyidagi raqamlarda o'z aksini topgan:

2015 yilda eng ko'p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (83,7 million), AQSh (74,8 million), Ispaniya (65,0 million), Xitoy (55,6 million) va Italiya (48,6 million) kuchli beshlikda turishibdi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Meksika kuchli o'ntalikdan joy olgan. Biroq bu ko'rsatkich bo'yicha Yevropa va Osiyoning bir nechta shaharlari yetakchilik qilmoqda. Bunga misol qilib Hongkong (27,7 million), London (17,4 million), Singapur (17,1 million), Bangkok (16,2 million) va Parij (15,0 million) singari shaharlarni keltirish mumkin. 150-o'rin O'zbekiston uchun aslo xos emas. Afsuski, O'zbekiston bu sohada hali ancha orqada ekanligini ko'rish mumkin. Xususan, Butunjahon turizm va sayohatlar bo'yicha kengashi (BTSC) tomonidan berilgan bahoga ko'ra, O'zbekiston sayyohlar tashrifi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 150-o'rinni egallaydi. Yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o'z o'rniga ega bo'lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past. Shuning uchun bu borada sezilarli o'sish haqida fikr yuritish ana shu omillarga bog'liq. O'zbekistonda turizm qay ahvolda va uni rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak - mutaxassis takliflari. Sayyohlik (turizm) sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli

taraqqiyoti esa, ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda.

BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotida 2015 yilda dunyo bo'yicha 1 milliard 184 million sayyoh qayd etilgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatkich 1 milliard 235 millionga ya'ni, 3.9 foizga oshgan. Sayohatchilarga ko'rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015 yilda qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. 2016–2017 yillarda ham bu raqamlarda katta tafovutni ko'rish mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko'plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Turizmning samaradorlik darajasi quyidagi raqamlarda o'z aksini topgan: 2015 yilda eng ko'p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (83,7 million), AQSh (74,8 million), Ispaniya (65,0 million), Xitoy (55,6 million) va Italiya (48,6 million) kuchli beshlikda turishibdi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Meksika kuchli o'ntalikdan joy olgan. Biroq bu ko'rsatkich bo'yicha Yevropa va Osiyoning bir nechta shaharlari yetakchilik qilmoqda. Bunga misol qilib Hongkong (27,7 million), London (17,4 million), Singapur (17,1 million), Bangkok (16,2 million) va Parij (15,0 million) singari shaharlarni keltirish mumkin. Yaqinda rasmiy saytlardan birida 2017 yilning birinchi yarmida yurtimizga 1 million 800 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani, bu ko'rsatkich 2016 yilga qaraganda 17 foizga oshgani haqidagi maqolaga ko'zim tushdi. Nazarimda, ushbu raqamlarda biroz mubolag'a bordek. Chunki o'zim aynan sayyohlik sohasida ishlayotganim bois, shunday fikrdaman. Buning sabablarini maqolam davomida ko'rsatib o'tishga harakat qilaman. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti. Sayyohlar oqimini yanada oshirish,

ularni ohanrabodek jalb qilish uchun nima qilishimiz kerak? O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Nahotki shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimiz bo'la turib, ularni dunyoga tanita olmasak? Buning uchun bizda arzigulik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz yetarli. Birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoh tashrif buyurar ekan. Biz esa har yili sayyohlar sonini sanashdan, o'tgan yildagidan biroz ko'paygan bo'lsa, uni baralla ovoza qilishdan nariga o'tmayapmiz. Raqamlarda mamlakatimizga 1 million 800 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani qayd etilgan. Agar mamlakatimizda asosiy sayyohlik mavsumi mart oyining o'rtalarida boshlansa va dastlabki mavsum yakuni iyun oyi so'ngiga qadar bo'lsa, shu davr mobaynida shuncha sayyoh kelib ketishini tasavvur qilish qiyin. Qolaversa, bizda mehmonxonalar yetarli emas, bori ham Yevropa mamlakatlarining mehmonxonalari narxi bilan deyarli teng va har yili narx sezilarli darajada o'sib bormoqda. Bu borada yana Parijga «murojaat» qiladigan bo'lsak, u yerda shahar va uning atrofidagi hududlardagi mehmonxonalar soni 4.260 tani tashkil etar ekan. Bizda esa bu ko'rsatkich respublika miqyosida 4 yarim barobarga past, ya'ni, yurtimiz bo'yicha atigi 750 ta mehmonxona mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizni tashkil etadi. Bu judayam past ko'rsatkich. Turizm faoliyatini amalga oshirgan firma va tashkilotlarning soni esa 433 tadan iborat. Soha rivoji e'tibordan chetda qolib kelayotgani, uning O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotiga qo'shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatlarimizni targ'ib qilish, shuningdek, valyuta zaxiralarini to'ldirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilishi zarurligini alohida ta'kidladi.

Turist — investitsiya degani

Prezidentimiz dunyoning 33 ta mamlakatida O'zbekiston elchixonolari faoliyat ko'rsatayotgan elchilarga qarata qilgan onlayn murojaatida O'zbekistonga xorijiy

investitsiya hamda turistlarni jalb qilishni, ayniqsa, har bir elchiga har kuni 10 nafar sayyoh jo'natishga e'tibor berishni ta'kidladi. Ya'ni, turist ham investitsiya degani, degan g'oyani ilgari surdi. Davlat rahbarining yurtimizda barcha sohalar qatorida turizmga ham katta e'tibor qaratishi bu sohada ko'zga tashlanib kelinayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralari jadallik bilan amalga oshirilishida dasturulamal bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. O'zbekiston yirik turizm salohiyatiga ega mamlakatlar qatorida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega ekan, demak biz mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turizm sayyohlik. T.Xoldarov , X.Tulenova Toshkent 2016 yil.
2. Review.uz
3. <https://lex.uz>
4. <https://kun.uz/news/2018/01/02/uzbekistonda-turizm-kaj-avolda-va-univ-rivozlantiris-ucun-nimalar-kilis-kerak-mutahassis-takliflari>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-iqtisodiyoti-rivojlanishida-turizmning-ahamiyati>
6. <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/turizm-iqtisodiyot-drayveri>